

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHARIFOV AZIMBEK ERGASH O'G'LI

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING
KASBIY-EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Kimyo sanoati texnikumlari misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasining avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sharifov Azimbek Ergash o'g'li

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy-ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Шарифов Азимбек Эргаш угли

Совершенствование методики развития профессиональной и экологической компетентности обучающихся в профессиональных образовательных учреждениях 23

Sharifov Azimbek Ergash ugli

Improving the methodology for the development of professional and environmental competence of students in professional educational institutions..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

Published Works.....49

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHARIFOV AZIMBEK ERGASH O'G'LI

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING
KASBIY-EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Kimyo sanoati texnikumlari misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped697 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Esanboboyev Faxriddin Toshtemirovich
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
Pedagogika fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (127-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "04" 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil "04" 04 dagi 05 - raqamli reyestr bayonnomasi).


R. Djurayev
Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor
S. Shariyeva
Ilmiy kengash a'zosi, p.f.d. (DSc), professor
S. Kadirov
Ilmiy kengash a'zosi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mehnat bozorida professional kadrlarga bo'lgan talabning oshib borishi professional ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilarni kasbga kasbiy faoliyatga tayyorlash zaruratini talab qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi iqtisodiyotning keskin o'zgarishlariga moslashgan, har qanday sharoitda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "o'qitish va kasbga tayyorlashda turli xil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va kuchaytirish" doirasida dunyo ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar, taraqqiyotning tezlashib borishi, professional ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini kimyo fanini o'qitish asosida takomillashtirish hamkorlikda o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash, modellashtirish, o'qitishning uslubiy-didaktik ta'minotini rivojlantirish, professional ta'limda o'quvchilarga kimyo o'qitish metodikasini taomillashtirish, o'quvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini maholash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini mustaqil kasb egasi bo'lishga yo'naltirish, ularning o'zlari qiziqqan sohalarida iqtidor va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, etuk mutaxassis bo'lib shakllantirish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarini ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda o'qitishda raqamli va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"¹ va "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish"² kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu o'z navbatida, professional ta'limga zamonaviy metodologik yondashuvlarni va umumdidaktik tamoyillarni singdirish, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, professional ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi uzluksiz hamkorlikni kuchaytirishni hamda kimyoviy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.// <https://lex.uz/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/7166588#7166720>

PF-60-sonli, 2024-yil 16-oktyabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-sonli, 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmonlari, 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli, 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va fapmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli, 2017-yil 5-maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'ricida"gi PQ-2956-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan U.N.Nishonaliev, R.X.Djuraev, A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.Qurbonov, Z.K.Ismailova, R.K.Choriev, H.F.Rashidov, N.S.Sayidaxmedov, O.Abduquddusov, Sh.S.Sharipov, A.I.Avazboev, Q.Abdullaeva, J.Xamidov, Sh.Qulieva, M.Toshov va boshqalar professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitishni takomillashtirish, ta'lim tizimiga raqamli va pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy, konseptual va metodologik asoslari tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlari olimlaridan G.V.Bezyuleva, S.G.Gilmiyarova, O.N.Golovko, R.A.Mahabadarova, A.V.Peredelskiy, M.F.Reymers, Ye.A.Tarxanovanning, T.A.Xvan, A.A.Chelnokovga va boshqalar professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirish, professional ta'limda dual tizim asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy olimlardan E.Giddens, P.Druker, M.Kastels, E.Toftler, F.Satton, M.Fullan va boshqalar tadqiqotlarida ta'limda integratsion jarayonlar, fanlararo integratsiya, integrativ ta'lim va dual ta'lim natijalarini diagnostika qilish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining yuqori saviyasini anglagan holda ta'kidlash mumkinki, professional ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligida o'quvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, modellashtirish, uslubiy-didaktik ta'minotini rivojlantirish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish, diagnostik natijalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash;

professional ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish hakorligida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modeli maqsaddan natijaga yo'naltirilgan mazmunli, texnologik jarayonli va dignostik komponentlar uzviyligida hamda metodologik yondashuvlar, ta'limiy funksiyalar hamda umumdidaktik va maxsus tamoyillarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy-muvofiqlashtiruvchi va sub'ektiv-mazmunli pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy muammolarni hal qilish, kelajakdagi kasbni tanlashga oid qarorlarni qabul qilish, qiziqish va motivlarni shakllantirish hamda mobilli uslubiy ta'minotni takomillashtirish asosida ta'minlangan;

professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi yagonadan umumiyga va umumiydan chegaraviy umumiylikkacha bo'lgan ilmiy va o'quv bilishning gnoseologik, metodologik, didaktik asoslarini refleksiyalash hamda empirik asos, nazariy yadro va dialektik natijaga qaratilgan metodikalar asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishning asosiy komponentlari mazmuniga muvofiq, motivatsion,

kognitiv, faoliyatli, refleksiv mezonlari kasbiy faoliyatga tayyorlashning dasturiy-mobilliy apparatini pedagogik apparatga muvofiqlashtirish hamda baholashning indikator ko'rsatkichlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligida o'quvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan fan dasturlari va malaka talablari mazmunan rivojlantirilgan hamda "Kasbiy faoliyatda kimyo" nomli tanlov fani ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha "Kasbiy faoliyatda kimyo" va "Kasbiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan "Professional ta'limda ekologiya" nomli mobil ilova ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan metodika, model, ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot, ya'ni o'qitishning raqamli texnologiyalaridan foydalanib professional ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, ta'lim jarayonlarini metodologik yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligida o'quvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan professional ta'lim tizimida kimyo fanini o'qitishni yanada takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlashda, professional ta'limda kimyo fani mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishda, professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligida o'quvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish modeli maqsaddan natijaga yo'naltirilgan mazmunli, texnologik jarayonli va diagnostik komponentlar uzviyligida hamda metodologik yondashuvlar,

ta'limiy funksiyalar hamda umumdidaktik va maxsus tamoyillarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir takliflar Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) nomli grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-dekabrda №02/02-3526-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan model professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy-muvofiqlashtiruvchi va sub'ektiv-mazmunli pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega kasbiy muammolarni hal qilish, kelajakdagi kasbni tanlashga oid qarorlarni qabul qilish, qiziqish va motivlarni shakllantirish hamda mobilli uslubiy ta'minotni takomillashtirish asosida ta'minlashga doir takliflar "Kasbiy faoliyatda kimyo" nomli nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-dekabrda №02/02-3526-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ta'minlangan pedagogik shart-sharoitlar professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligida o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv mezonlarini takomillashtirishga oid takliflardan professional ta'lim malaka talablari va fan dasturlarini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 10-dekabrda №02/02-3526-sonli ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan metodika va baholash mezonlari kimyo o'qitish sifatini va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 tadan ortiq ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan,

tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob’ekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “Professional ta’limda o’quvchilarning kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida professional ta’limda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, professional ta’limda o’quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari tahlili va professional ta’lim va ishlab chiqarishning dual tizimida kadrlar tayyorlash bo’yicha ilg’or xorijiy tajribalar tahlili keltirilgan.

Ekologiya atamasining so’zma-so’z tarjimasini - uy haqidagi ta’limotga qaytadigan bo’lsak, ma’lum tizimlardagi (tabiiy, antropogen, ijtimoiy-tabiiy) o’zgarishlarni aniqlashning o’zi etarli emasligi ayon bo’ladi. Bundan xulosa qilamizki, ekologiya va undan ham ko’proq ekologik kompetensiya pedagogik muammodir.

Dastlab ekologiya biologiya fanining komponenti sifatida boshqa tabiiy fanlar - kimyo, fizika, geografiya, geologiya, tuproqshunoslik va boshqalar bilan chambarchas bog’liq holda rivojlandi. Hozirgi vaqtda ekologiya fanlararo, umumilmiy ahamiyatga ega bo’lib, umumiy ekologiyaga aylandi.


Bunga muvofiq ekologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: biosferaning yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishi va rivojlanishi qonuniyatlarini tushunish; insoniyat sivilizatsiyasining atrof-muhitga ta’sirining ruxsat etilgan chegaralarini aniqlash; jamiyatning rivojlanish yo’llari bo’yicha konseptual g’oyalar va tavsiyalarni ishlab chiqish, bu atrof-muhitga ta’sir qilish chegaralariga rioya qilishni, ularning mavjudligi va rivojlanishini kafolatlaydi.

Shunday qilib, A.A.Chelnokovga ko’ra zamonaviy ekologiya - ilmiy bilimlarning muammoli tizimidir (1-rasm):



1-rasm. Ekologiya sohasida ilmiy bilimlar tizimi (A.A.Chelnokov)

Umumiy va bioekologiya tushunchalarini birlashtirgan dinamik, tahliliy, geoekologiya, inson ekologiyasi va ijtimoiy ekologiyani ajratadi (2-rasm):



2-rasm. Umumiy va bioekologiya tushanchalari tizimi

Shu munosabat bilan, ushbu dissertatsion tadqiqot ishining maqsadi professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirish modelini va metodikasini kimyo fanini o'qitish asosida takomillashtirishdan iborat.

Ta'limda subyektiv yondashuv bugungi kunda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Aynan shu yondashuv ta'limni insonparvarlashtirishni belgilaydi. Umuman gumanitar fanlarda, xususan, pedagogika fanida mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining psixologik-pedagogik mexanizmlarini o'rganishda subyektiv mezon ustuvor vazifaga aylanadi.

Motivatsion komponent sifatida professional ta'lim o'quvchilarining (Atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish yo'nalishi) kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirishga sub'yektiv-faoliyatli yondashuvi uchun biz mintaqaviy aspektni tanladik.

Ekologiyaning asosiy vazifalarini quyidagilar: biosferaning yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishi va rivojlanishi qonuniyatlarini tushunish; tabiiy va antropogen kelib chiqadigan kompensatsion ta'sirlarga atrof-muhit komponentlarining reaksiyalarini o'rganish; insoniyat sivilizatsiyasining atrof-muhitga ta'sirining ruxsat etilgan chegaralarini aniqlash; jamiyatning rivojlanish yo'llari bo'yicha konseptual takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish, ular atrof-muhitga ta'sir qilish chegaralariga rioya qilishni, ikkinchisining mavjudligi va rivojlanishini kafolatlaydi;

Motivatsion komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi: muayyan hududda

(ekotizimda) hayot xususiyatlarini aniqlash metodikasini va unda hayot sifatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Dastlabki to'rtta vazifa umumilmiy va umumkasbiy yuklama beriladi. Oxirgi (beshinchi) vazifa ma'lum bir hududda yashovchi har bir insonning sog'lig'iga taalluqlidir, shuning uchun uni muhimli - motivatsion deb hisoblash mumkin.

Muayyan tabiiy sharoitlarda o'zini anglagandan so'ng, savollar tug'iladi: menga nima bog'liq? Menga nima bog'liq emas? Nima qilish kerak? Shuning uchun reguliyativ-faoliyatli blokining paydo bo'lishi uchun zarur shartlar mavjud: muammo - echim topish - muammoni hal qilish - yangi muammo.

O'quvchilarning kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirishga sub'ektiv-faoliyatli yondashuv Davlat standartida nazarda tutilgan kimyo texnologiya yo'nalishdagi ixtisoslik va umumkasbiy fanlar o'ziga xos xususiyatlar, ya'ni mintaqadagi geokimyoviy vaziyat bu erda yashovchi odamlarning sog'lig'iga ta'sir qilishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Subektiv-faoliyatli yondashuvni ta'minlovchi mintaqaviy aspekt ekologik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy komponentlaridan biridir. Ushbu bobning maqsadi ma'lum bir mintaqaning xususiyatlarini o'rganish yo'nalishlarini va ushbu bilimlardan ekologik kompetentlikni rivojlantirish motivatsiyasini asoslash uchun foydalanishni ko'rsatish edi.

Ta'limda "kompetentlik" tushunchasi faoliyatning samaradorligi bilan bog'liq. Ta'lim jarayonining eng muhim vazifasi ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish bo'lishi kerak va o'quvchilarni turli vaziyatlarda va turli ijtimoiy muhitda samarali xulq-atvorga o'rgatish kerak. Shu munosabat bilan mintaqaviy komponent ekologik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi.

Atrof-muhit va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik aniq, ammo so'nggi yillarda atrof-muhit inson faoliyatining natijalari sifatida tobora ko'proq tushunilmoqda.

Sinergetikaning metodologik qarashlarini pedagogik hodisalarni tahlil qilishda qo'llash nafaqat ularning mohiyatini har taraflama chuqur tadqiq etishga, balki amaliy pedagogik kasbiy faoliyatni yanada samaraliroq amalga oshirish imkonini berishi mumkin. Xususan, ta'lim olishga bo'lgan har qanday bir yoqlama yo'naltirilgan yondashuvning cheklanganligini xoh u kognitiv, ijtimoiy yoki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ekologik yoki madaniy yondashuv bo'lsin tushunish, pirovardida integrativ ta'lim paradigmasini izlashga rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, ta'limdagi kompetentli yondashuv integrativ xususiyatga egadir.

Ta'limda kompetentli yondashuv tobora dolzarb ahamiyat kasb etganligi sababli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" tushunchalari yangi ta'lim sifati masalalarini muhokama qilishda tez-tez qo'llanmoqda hamda tobora keng o'z tasdig'ini topmoqda. Xorijiy va mamlakatimiz pedagogikasida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini mohiyatini idrok etish, ularning qaysi biri asosiy (universal) hisoblanishi, ularning shakllanish va baholash usullari


qanday ekanligini anglash jarayonlari tobora faollashmoqda, shuningdek ushbu tushunchalarga aniqlik kiritish ustida faol muzokaralar olib borilmoqda.

Ko'rib o'tilgan metodologik yondashuvlar va tamoyillar kasbiy ta'limning o'ziga xos tarmog'i bo'lgan kasbiy ta'limni maqsadli ravishda rivojlantirish va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish uchun fundament vazifasini bajaradi. Ularni qo'llash o'zini o'zi tashkil qilish va o'zini o'zi boshqarish asosida ta'limning tizimliliigi, yaxlitligini ta'minlash, ta'lim tizimlarining barcha bosqichlari kabi shaxsiy bosqich (ta'lim oluvchi, pedagog)da o'zini o'zi tashkil qilish va o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmlariga tayanish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Professional ta'limda o'quvchilarning kasbiy ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi" deb nomlanib, ushbu professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy ekologik kompetentligini shakllantirish modeli, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik va sub'ektiv-mazmuniy shart-sharoitlari va uslubiy-didaktik ta'minoti va kimyo fanini o'qitish asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi bayon etilgan.

Kognitiv va xulq-atvor yondashuvlarga asoslangan kasbiy ekologik kompetensiyani shakllantirish modeli zaruriy, kasbiy va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga asoslanadi. Bu kompetensiyalarning shakllanishi yakka holda yuzaga kelmaydi. Bu, ayniqsa, biz turli vaziyatlarda boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish deb tushunadigan tayanch kompetensiyalar uchun to'g'ri keladi.

METODOLOGIK YONDASHUVLAR:



3-rasm. Metodologik yondashuvlar

Kimyoviy fanlarni o'qitish asosida o'quvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirishning metodik modelini ishlab chiqamiz. Taqdim etilgan modelda kasbiy ekologik kompetentlikni (kimyoviy fanlar yordamida) kasbiy yo'naltirilganlikdan boshlab shakllantirish bosqichlari ko'rsatilgan. Metodik model kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kimyoviy fanlarning uzluksizligini hisobga oladi. Modelning o'ziga xos xususiyati nafaqat kasbiy ta'lim bosqichini, balki shaxsning keyingi rivojlanishini ham kuzatishdir. Bundan tashqari, mintaqaviy komponentning roli pasaymaydi, u professionallikka o'tishga yordam beradi.

Pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti holatini tahlil qilish professional ta'lim o'quvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish jarayonining barqarorligini ta'minlash faqat metodik modelni qurish va amalga oshirish orqali mumkinligini isbotladi.

Tizimli tahlil usul va vositalaridan foydalangan holda kimyoviy fanlarni bilishga oid jarayonini modellashtirish quyidagilarni nazarda tutadi: tizimni ajratib ko'rsatish; uning komponentlarini belgilash; modelning kirish va chiqish ta'sirlarini tavsiflovchi mazmunli mohiyatini aniqlash va tanlab olish; boshqarish va holat o'lchamlaridagi cheklovlarni hisobga olish; holat va boshqaruv o'lchamlari orasida o'zaro bog'liqlik turini aniqlab olish.


Modellashtirishga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish jarayonida, biz modelning pedagogik tadqiqotlarda ahamiyati shundan iboratki, u modelning o'zaro bog'liq va reproduktiv elementlarining ajralmas majmuasini aks ettiradi; elementlar va model tomonidan bajariladigan funksiyalar; pedagogik modelni amalga oshirish shartlaridir. Bizning modelimiz shakllanishi va amalga oshirilishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilarni kiritdik: o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mezonlari bo'lib xizmat qiladigan umumiy ta'lim DTS; o'quvchilarning bilim darajasiga jamiyat talablari.

Tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuv asosida o'quvchilarning ekologik kompetentligini kimyoviy fanlardan bilimlarini rivojlantirish orqali shakllantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uni professional ta'lim doirasida ko'rib chiqish mumkin.

Modelga ta'rif berish uchun uning umumiy komponentlarini tasavvur qilamiz: maqsadli komponent–o'quvchilarning umumiy tayyorgarligining maqsad va vazifalarini aniqlab olish; *metodologik komponent* – yondashuvlar, tamoyillar; *mazmunli komponent*–kimyodan umumiy tayyorgarlikning mazmuni (me'yoriy hujjatlar, uslubiy kuzatish); *texnologik komponent* – ekologik kompetentlikning shakllanish bosqichlari, usullari, vositalari; *baholash-natijaviy komponent*–baholash mezonlari va natija (4-rasm).

Professional ta'limda o'quvchilarning kimyoviy fanlardan bilimlarini rivojlantirish orqali ekologik kompetentligini shakllantirish jarayoni funksiyalari: nazariy-bilishga oid, motivatsiya va maqsadni aniqlashni amalga oshirish, umumilmiy bilimlarni olish va ularni idrok qilish imkonini beradi; shaxsga oid faoliyatli bilimlar va ko'nikmalar tizimini shakllantirish imkonini beradi; kasbga yo'naltirilgan, umumiy faoliyatni amalga oshirish, ijodiy boshlanmalarni ro'yobga chiqarishga yo'l ochadi.

Kimyoviy bilim va ko'nikmalarni baholash butun o'quv jarayonida amalga oshiriladi. Biz quyidagi baholash usullaridan foydalanamiz: terminologik diktant, test sinovlari, blis-so'rovlar va boshqalar. Baholash an'anaviy tarzda (qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi, a'lo) amalga oshiriladi. Olingan hisob-kitoblarni tahlil qilgandan so'ng, kimyoviy bilimlar, o'quvchi bilimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha tuzatuv choralari ko'riladi, qayta baholash va boshqalar. Baholash komponent o'quvchilarning kimyoviy bilimlarini rivojlantirish natijasida ularning kasbiy ekologik kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.



4-rasm. Professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirishning metodik modeli

Metodologik yondashuvlar: *tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli*; Rivojlantiruvchi funksiyalar: *rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, terapevtik, ko'ngilochar*; Umummetodologik tamoyillar: *tizimlilik; sinergizm, faollashtirish, samardorlik, duallik, integrativlik, ahamiyatlilik, tizimli asoslanganlik, mobillik, ta'lim tizimining ochiqligi, ta'limni fundamentlashtirish va amaliy yo'naltirilganligining birligi tamoyili, bilimlilik tamoyili, ko'ptarmoqliligi tamoyili, tizimlilik tamoyili*.

Pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash jarayonida biz ekologik kompetentlikning o'ziga xos xususiyatlariga, uning mazmuniga va professional ta'limda o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratdik. Natijada biz ikkita shart guruhini aniqladik: *mazmuniy-muvofiqlashtiruvchi shart-sharoitlar*: a) o'quvchilarni shaxsiy tajribani hisobga olgan holda tarmoq resurslarini tanlashga jalb qilish (resurs-tarmoq komponenti); b) jamoatchilik va professional muhit vakillari tomonidan loyiha echimlarini ekspertizadan o'tkazish (loyihalash va boshqaruv komponenti); v) vaqtni boshqarish tamoyillari bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etish (tashkiliy-predmetli komponenti); *o'quvchi shaxsiga ta'sir etuvchi sub'ektiv-mazmunli shart-sharoitlar*: a) kommunikativ tashabbus (boshqaruv)ni rivojlantirish; b) bo'lajak mutaxassisning ijodiy salohiyatini takomillashtirish (loyiha faoliyati).


Bizning holatda, o'quvchining mavjud tajribasiga virtual aloqaning o'ziga xos xususiyatlari, dasturiy mahsulotlar, ular bilan ishlash qobiliyati, internet makonidagi kommunikativ xatti-harakatlar qoidalarini tushunish kiradi (masalan www.phet.colorado.edu muhitida ishlash), bu bo'lajak mutaxassislar tomonidan ma'lum tarmoq resurslarini tanlash va ulardan foydalanishni belgilaydi.

Pedagogik shart-sharoitlar biz ishlab chiqqan modelga haqiqatan ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun uni amalga oshirish boshlanishi bilan bir vaqtda ta'minlanishi kerak. Bu bizga har bir guruhning samaradorligini oshirish, ushbu o'zaro ta'sirni tashkil etishni takomillashtirish, vaqt xarajatlarini optimallashtirish orqali modelimiz samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rib chiqilayotgan pedagogik shart-sharoitlar bo'lajak mutaxassis shaxsini o'z-o'zini tarbiyalash, uning o'z ustida doimiy ishlashi bilan bevosita bog'liq va shaxsning nafaqat norasmiy etakchi bo'lishga ongli istagi bilan bog'liq.

Taqdim etilgan mazmuniy-muvofiqlashtirish va sub'ektiv-mazmuniy pedagogik shart-sharoitlar majmuasi bo'lajak mutaxassislarni ekologik kompetentligini rivojlantirish modelining ishlashiga model komponentlarining ishlash samaradorligini kuchaytirish va asosiy jihatlarga muvofiq o'quvchi shaxsiga ta'sirini kuchaytirish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Professional ta'limda (texnikumlar misolida) o'qitiladigan kimyoviy fanlarning fan dasturlarining mazmuni takomillashtirildi: adabiyotlar ro'yxatlari yangilandi, zamonaviy pedagogik texnologiyalari kiritildi, baholash mezonlari ishlab chiqildi, mustaqil ish mavzulariga qo'shimcha mavzular kiritildi. Biz tomonimizdan quyidagi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilib, professional ta'lim amaliyotiga joriy qilindi: "Kasbiy faoliyatda kimyo", "Kasbiy pedagogika". Mazkur o'quv qo'llanmalar o'quvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qildi.

Kimyo fanini o‘qitish metodlarining umume’tirof etilgan yagona tizimi mavjud emasligi, olimlar tomonidan metodlar tasnifini yaratishda turli g‘oyalar va yondashuvlardan foydalanilganligi e’tiborga olinishi lozim. Professional ta’lim muassasalarida kimyo darslarida o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqdik (5 - rasm).



5-rasm. O‘quvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli

